

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

ELMANOVA MASTURA TOSHNAZAROVNA

**JOYS KEROL OUTSNING IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK ROMANLARI
POETIKASI**

10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2024

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам
The contents of the dissertation abstract for a Doctor of Philosophy (PhD) in Philology

Elmanova Mastura Toshnazarovna

Joyce Kerol Oatsning ijtimoiy –psixologik romanlari poetikasi.....3

Эльманова Мастура Тошназаровна

Поэтика социально-психологического романа Джойс Кэрол Оутс23

Elmanova Mastura Toshnazarovna

The poetics of the socio-psychological novel by Joyce Carol Oates45

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....49

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

ELMANOVA MASTURA TOSHNAZAROVNA

**JOYS KEROL OUTSNING IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK ROMANLARI
POETIKASI**

10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2023.1.PhD/Fil3111 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Lixodziyevskiy Anatoliy Stepanovich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Kiselyev Dmitriy Anatolyevich
filologiya fanlari doktori, dotsent

Toirova Nargiza Isakovna
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «16» sentabr soat 09⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-29-14; faks: (0 365) 221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (480 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «29» avgust kuni tarqatildi.
(2024-yil «29» avgust dagi 24-24 - raqamli reestr bayonnomasi.)



D.S.O'rayeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori, professor

Z.I.Rasulov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
kotibi, filologiya fanlari doktori, professor

F.M.Xajiyeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori,
dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon zamonaviy adabiy kontekstida ijtimoiy-psixologik roman muammosining nazariy-poetik xususiyatlarini o'rganish, uning Amerika milliy adabiyotining shakllanishidagi va nasriy ijod tendentsiyalarini belgilashdagi roli tadqiqiga alohida e'tibor qaratilmoqda. XIX asr boshi ijtimoiy-psixologik roman janr doirasida yaratilgan namunalarning inson dunyoqarashidagi yangi usul va tamoyillar negizida poetik talqin etilishi zamonaviy adabiy jarayon qonuniyatlarini to'liq anglashda muhim ahamiyat kasb etadi. Zero har bir ijtimoiy bosqichning ijtimoiy, siyosiy, madaniy voqeligini anglash bizga sivilizatsiya taraqqiyoti qonuniyatlarining yaxlit tasavvurini shakllantirishga, zamonaviylikni anglash uchun o'tgan davrlar tajribasini o'rganishga, o'zimizni anglashga, janr poetikasini aniqlash uning tarbiyaviy, sentimental, falsafiy xarakterini belgilashga, intertekstuallik va interdiskursivlik nazariyalarining boyitilishiga imkon yaratadi.

Dunyo adabiyotshunosligida turli tillarda yaratilgan eng mashhur asarlarning poetik xususiyatlarini ochib beruvchi ilmiy-nazariy tadqiqotlar, xususan, ijtimoiy-psixologik romanlar poetikasini Yevropa va Amerika adabiy tanqidi kontekstida o'rganishga doir keng ko'lamli izlanishlar olib borilgan. Inson tabiatining teran qirralarini idrok etish ularda inson ruhiyatining murakkab tomonlarini aks ettiruvchi ichki motivlar, hissiy ziddiyatlar va psixologik reaksiyalarni chuqur anglash, adiblar ijodini davr va zamon bilan chambarchas bog'liqlikda tahlil qilish, adabiy muhit va jamiyat dunyoqarashini ilmiy yondashuvlar asosida o'rganish ustivor yo'nalishlarga aylanib bormoqda. Shu munosabat bilan Joys Kerol Outsning ijtimoiy-psixologik muammolarga bag'ishlangan romanlari tadqiqi inson muammolarining yashirin sabablarini asoslashga, muloqot, muomala qonuniyatlari, shaxslararo munosabatlar, ijtimoiy va milliy ong, mentalitet, milliy qiyofa, karakter, ta'b, an'ana, odat, marosimlarni yoritish, badiiy-poetik kontseptsiyasini ilmiy-nazariy baholashga xizmat qiladi.

O'zbek adabiyotshunosligida jahon zamonaviy adabiyoti va adabiy jarayon qonuniyatlarini o'rganish, xususan, Amerika adabiyoti namoyandalarning ijodini tahlil qilish jahon adabiyoti yo'nalishlarini chuqurroq anglash, o'zbek adabiyotida ularning o'rnini aniqlash bu jarayondagi adabiyot va uning qonuniyatlarini o'rganish imkonini beradi. "Hozirgi notinch va xavotirli zamonda hayotning o'zi zamonamizning o'ta murakkab muammolarini birgalikda hal etish, global muammolarni yengib o'tish va ezgu niyatli barcha insonlarni birlashtirish uchun har qachongidan ham badiiy so'zning roli va mas'uliyatini oshirishni talab qilmoqda, bugungi kunda insoniyat oldida turgan tahdidlar, sayyoramiz aholisining qariyb uchdan bir qismini tashkil etuvchi yoshlarni yuksak insonparvarlik g'oyalari asosida tarbiyalaydi"¹. Shuning uchun Joys Kerol Outs asarlarida ijtimoiy-psixologik roman muammosini o'zbek adabiyotida o'rganish muhim ahamiyatga

¹ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 18.05.2018 й. 376-сон "Жаҳон адабиётининг энг сара намуналарини ўзбек тилига ҳамда ўзбек адабиёти дурдоналарини чет тилларига таржима қилиш ва нашр этиш тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Қарори. Ўзбекистон Республикаси қонунчилиги Ахборот-кидирув тизими.

ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi farmonlari, 2017-yil 11-avgustdagi 610-son “Ta‘lim muassasalarida chet tillarni o‘qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi².

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Joys Kerol Outs ijodi jahon adabiyotshunoslari tomonidan yuqori baholanadi. Jahon adabiyotshunoslari va biograflari L.Shrayver, S.King, J.Apdayk va boshqalar o‘z asarlarini yozuvchi hayoti va ijodini o‘rganishga bag‘ishlaganlar. Angliya, Amerika, Kanada va Rossiyada olib borilgan tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, ular e‘tiborni, asosan, yozuvchi hayotining biografik tafsilotlari, uning tili va uslubi xususiyatlariga qaratgan. Ular orasida rus adabiyotshunoslari va tilshunoslari T.N.Denisova, A.M.Zverev, Y.N.Zasurskiy, A.Mulyarchik, T.Rotenberg, S.Belov, I.N.Klepatskaya, M.M.Koreneva, N.A.Anastasyeva va M.O.Mendelson³, xorijiy adabiyotshunos olimlar G.Bruks, G.Jonson, D.Kreyton, D.Luro va G.Xiks⁴ ning

² Мирзиёев, Ш. М. О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан. Указ Президента Республики Узбекистан. «Народное слово» 08.02.2017. № 28 (6692)

³ Денисова Т.Н. Экзистенциализм и современный американский роман. Киев.: Наукова думка, 1985. с.240; Зверев А. Джойс Кэрол Оутс. Темная сторона. Восемнадцать притч. // Современная художественная литература за рубежом, 1980. № 5. - С.93 – 96; Засурский Я.Н. Американская литература XX века. М.: Изд-во Моск. ун-та, 1984. - 493 с.; Мулярчик А. Судьбы "литературного истеблишмента" в США. // Иностранная литература, 1982. № 5. - С.206 – 209; Ротенберг Т. Как поживает роман? // Иностранная литература, 1981. - № 6. - С.213 – 216; Белов С. В поисках гармонии. // Дж.К.Оутс. Делай со мной что захочешь. М.: Художественная литература, 1983.С.3- 18; Клепацкая И.Н. Цейно-художественное преломление "женской темы" в романе США 70-х начала 80-х годов XX века: Творчество писательниц-женщин: Автореф. дис. канд. филол. наук. - Пермь, 1987. – с.16; Коренева М. Романы Д.К.Оутс конца 70-х годов. Обзор. // Современная художественная литература за рубежом, 1982. -№ 2. С.68 – 75; Анастасьев Н.А. Массовое сознание и американский писатель. // Литература США XX века. Опыт типологического исследования. М.: Наука, 1978. - С.109 – 133; Мендельсон М. Джойс Кэрол Оутс. Страна чудес. // Современная художественная литература за рубежом, 1973. № 3.- С.51 53.

⁴ Gavin Cologne-Brooks Dark Side Of America .The novels of Joyce Carol Oates, Louisiana State University Press, 2005.-P.3-297;Greg Johnson The journal of Joyce Carol Oates,United States, Harper Collins Publishers, 2007.P.4-495; Creighton J.V. Joyce Carol Oates. Boston, 1979. – P. 172; L'Heureux. Mirage-Seekers // Critical Essays on Joyce Carol Oates / Ed. by L.W.Wagner. Boston, 1979. - P. 16-18; Hicks G. What Is Reality? // Critical Essays on Joyce Carol Oates / Ed. by L.W.Wagner. Boston, 1979. - P. 13-15.

ilmiy ishlari bor.

Ushbu sohada mavjud bo'lgan ilmiy tadqiqotlarni o'rganib chiqib, biz Joys Kerol Outs ishining barcha jihatlar yetarli darajada o'rganilmagan degan xulosaga keldik, ijtimoiy tengsizlik muammosi va oilaviy munosabatlar psixologiyasi muammolarini o'rganishga bag'ishlangan maxsus ishlar yo'q. Ushbu ilmiy tadqiqotning ahamiyati shundaki, ilk marta ijtimoiy tengsizlik muammolari va oilaviy munosabatlar psixologiyasi muammosi Outsning 2000-yillardan keyingi badiiy faoliyati nuqtayi nazaridan o'rganiladi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi Buxoro davlat universitetining 2017-2021 yillarga mo'ljallangan ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Pragmalingvistika, funktsional tarjimashunoslik, va til o'rgatish jarayonlari integratsiyasi" mavzusidagi ilmiy yo'nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Joys Kerol Outsning ijtimoiy-psixologik romanlari poetikasini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot vazifalari quyidagilar:

ijtimoiy-psixologik romanning muayyan adabiy janr sifatida o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish;

Joys Kerol Outs ijodidagi ijtimoiy-psixologik romanning o'rni va uning zamonaviy Amerika adabiyotidagi ahamiyatini aniqlash;

Joys Kerol Outsning ijtimoiy-psixologik romanlarida jamiyatda shaxs shakllanishi mavzusini ochishning o'ziga xosligini asoslash;

Joys Kerol Outs romanlarida ko'tarilgan asosiy mavzular, jumladan, oilaviy munosabatlar, ijtimoiy tengsizlik, irqchilik, zo'ravonlik va boshqa ijtimoiy-psixologik muammolarning ochib berilishini tahlil qilish;

Joys Kerol Outs romanlarida "oila - jamiyat" ziddiyatining badiiy timsolining o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish;

Joys Kerol Outs romanlarining tuzilishi, obrazlilik va personajlarini o'rganish, kompozitsiyaning ahamiyatini, tasviriy va ifodali vositalarini, muallif uslubining xususiyatlarini, romanlarda psixologik muhit va kayfiyatni yaratish yo'llarini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida Joys Kerol Outsning "Yo'qolgan ona" (Missing Mom, 2005), "Qora qiz/Oq qiz" (Black Girl/White Girl, 2006), "Go'rkovning qizi" (The Gravedigger's daughter, 2007), "Tun. Uyqu. O'lim. Yulduzlar." (Night. Sleep. Death. Stars., 2020), "Qurbonlik" (The Sacrifice, 2015), "Zamon osha sayohat xatari" (Hazards of Time Travel, 2018) romanlari tanlangan.

Tadqiqotning predmeti Joys Kerol Outs ijodidagi ijtimoiy-psixologik romanlar poetikasi tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida kompleks, tavsiflash, funktsional-interpretatsion, intertekstual, lingvopoetik, diskursiv, stilistik, shuningdek, psixologik tahlil usullari qo'llanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

XX asr oxiri va XXI asr boshlaridagi jamiyatning ijtimoiy-tanqidiy muammolari, illatlari, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy omillarning shaxs shakllanishiga

ta'siri va ularning rivojlanishi zamonaviy Amerika adabiyotida Joys Kerol Outs ijtimoiy-psixologik romanlarining badiiy kontseptsiyasi, g'oyaviy-axloqiy mohiyati, muallif badiiy qarashlari, estetik strategiyasi, tafakkuri, lisoniy elementlarning konstruktiv funksiyalari orqali namoyon bo'lganligi aniqlangan;

Joys Kerol Outs asarlarida personajlar psixologiyasini chuqur o'rganishi, jamiyatda tabu bo'lgan mavzularga munosabati, ijtimoiy hayotidagi axloqiy hodisalarni tasvirlashda mukammal mahorati, dadil va qarama-qarshi mavzulari, o'zgarmas realizmi, psixologik holatlar va ijtimoiy hodisalarni tasvirlashda noan'anaviy yondashuvining ustivorligi dalillangan;

Joys Kerol Outs ijodida zo'ravonlik, irqchilik, yolg'izlik, sinfiy farqlar, gender muammosi, stereotiplar va irqiy qarashlar, shuningdek, birinchi marta "daltonik irqchilik" kabi motivlarni voqelantirishda qahramonlarning ichki monologlari, vaqt va makonning o'ziga xos poetikasi, shaxsiy mavjudlik, muallif tafakkuri, ong oqimi, o'zini o'zi ifodalash poetikasi yetakchi o'rin egallashi isbotlangan;

muallif asarlarida mazmun, janr, uslubiy xususiyat, kompozitsion tuzilma, shakliy ifodani qamrab olgan intertekstuallik va matnning ekstralingvistik muhitda real kommunikativ vaziyatni voqelantiradigan interdiskursivlik kategoriyalari metafora, metonomiya, o'xshatish, epitet, alyuziyalar, qahramonlar og'zaki nutqi kabi badiiy tasvir vositalari orqali namoyon bo'lishi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

amerikalik yozuvchi Joys Kerol Outs ijodining xususiyatlari atroflicha o'rganilib, uning tili va uslubi xususiyatlari ochib berilgan, yozuvchining hayot va adabiyot haqidagi qarashlari asoslangan;

Joys Kerol Outs romanlarida ijtimoiy tengsizlik va oilaviy munosabatlar psixologiyasining aks etishi tabiati o'rganilgan va yozuvchining ushbu muammoni hal qilishda o'ziga xos yondashuvi aniqlangan;

XX asr oxiri - XXI asr boshlarida zamonaviy Amerika adabiyotiga o'ziga xos uslubi bilan kirib kelgan amerikalik yozuvchi Joys Kerol Outsning poetikasi tahlil qilinib, asarlarda ichki motivlar, hissiy to'qnashuvlar va psixologik reaksiyalarni mahorat bilan tasvirlab, inson psixikasining murakkablik jihatlarini aks ettirganligi tahlilga tortilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchiligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha chiqarilgan xulosalarning aniqligi, nazariy ma'lumotlarning ilmiy manbalarga asoslanganligi, tanlab olingan badiiy manbalarning tadqiqot predmetiga muvofiqligi, nazariy xulosalarning kompleks, tavsiflash, funksional-interpretatsion, intertekstual, lingvopoetik, diskursiv, stilistik, psixologik tahlil metodlari vositasida chiqarilgani, olingan natijalarning vakolatli davlat tuzilmalari tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy xulosalar va nazariy umumlashmalar adabiyotshunoslik yo'nalishida tadqiqot ishlarini olib borishda, zamonaviy Amerika adabiyoti, Joys Kerol Outsning badiiy mahoratini o'rganishda, uning asarlarini tahlil qilishda, til va uslubning o'ziga xos xususiyatlari va ijtimoiy tengsizlik, ijtimoiy munosabatlar muammolari hamda

oila munosabatlari masalasini tahlil va talqin qilish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ularning filologiya fakul'tetlari bakalavr yo'nalishi talabalari Amerika adabiyoti tarixi bo'yicha maxsus kurslardan ma'ruza va seminarlarni o'qitishda qo'llanilishi hamda chiqarilgan ilmiy xulosalardan dissertatsiyalar, monografiyalar, darsliklar va Amerika adabiyoti tarixi bo'yicha o'quv qo'llanmalar yaratishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Joys Kerol Outs ijodidagi ijtimoiy-psixologik romanlar poetikasi masalalarini o'rganishda olingan natijalar asosida:

XX asr oxiri va XXI asr boshlaridagi jamiyatning ijtimoiy-tanqidiy muammolari, illatlari, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy omillarning shaxs shakllanishiga ta'siri va ularning rivojlanishi zamonaviy Amerika adabiyotida o'ziga xos uslubiga ega yozuvchi, Joys Kerol Outs ijtimoiy-psixologik romanlarining badiiy kontseptsiyasi, g'oyaviy-axloqiy mohiyati, muallif badiiy qarashlari, estetik strategiyasi, tafakkuri, lisoniy elementlarning konstruktiv funksiyalari orqali namoyon bo'lganligiga oid nazariy xulosalardan Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2021-2023- yillarda bajarilgan I-OT-2019-42 "O'zbek adabiyotining ko'p tilli (o'zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish" mavzusidagi amaliy loyihani bajarishda foydalanilgan (Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 31-avgustdagi 01/4-1630-son ma'lumotnomasi). Natijada ijodi ochiqligi, personajlar psixologiyasini chuqur o'rganishi, odamlarning kundalik hayoti va psixologiyasini, ijtimoiy va jamoat hayotidagi axloqiy hodisalarni tasvirlashda mukammal mahoratga ega Joys Kerol Outs asl adiba sifatida Amerika hamda jahon adabiyoti rivojiga o'zining beqiyos hissasini qo'shganligi bilan bog'liq qarashlar loyiha huquqiy asoslarining boyish imkonini bergan.

Joys Kerol Outs asarlarida personajlar psixologiyasini chuqur o'rganishi, jamiyatda tabu bo'lgan mavzularga munosabati, ijtimoiy va jamoat hayotidagi axloqiy hodisalarni tasvirlashda mukammal mahorati, dadil va qarama-qarshi mavzulari, o'zgarmas realizmi, psixologik holatlar va ijtimoiy hodisalarni tasvirlashda noan'anaviy yondashuvining ustivorligiga doir ilmiy xulosalardan Samarqand davlat chet tillar institutida 2016-2018 yillarda amalga oshirilgan Yevropa Ittifoqining Erasmus+ dasturi 561624-ERR-1-2015-UK-EPPKA2-CBHE-SP-ERASMUS+ CBHE IMEP: "O'zbekistonda oliy talim tizimi jarayonlarini modernizatsiyalash va xalqarolashtirish" nomli xorijiy loyihada foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023-yil 28-iyuldagi №57/02-son ma'lumotnomasi). Natijada muallif asarlaridagi ramziy ma'no va metaforalar aniqlandi va tahlil qilindi, bu esa muallifning she'riy matnlarida qo'yadigan asosiy g'oya va ma'nolarni aniqlash imkonini berdi;

Joys Kerol Outs ijodida zo'ravonlik, irqchilik, yolg'izlik, sinfiy farqlar, gender va hokimiyatning roli, stereotiplar va noto'g'ri qarashlar, shuningdek, birinchi marta "daltonik irqchilik" kabi motivlarni voqelantirishda qahramonlarning ichki monoglari, vaqt va makonning o'ziga xos poetikasi, shaxsiy mavjudligi, muallif tafakkuri, ong oqimi, o'zini o'zi ifodalash poetikasi yetakchi o'rin egallashi bilan bog'liq xulosa va natijalardan Buxoro viloyat

teleradiokompaniyasida “Ayol va jamiyat”, “Assalom, Buxoro”, “Yaxshi kayfiyat”, “Psixolog huzurida”, “Mening huquqim” ko‘rsatuvlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (Buxoro viloyati teleradiokompaniyasining 2023-yil 28-iyuldagi №02-09-189-son ma’lumotnomasi). Natijada mazkur teleko‘rsatuvlar uchun tayyorlangan materiallarning mazmuni mukammallashgan, ilmiy-nazariy dalillarga boy bo‘lishi taminlangan hamda adabiy ko‘rsatuvlar ilmiy-ommabopligini ta’minlashga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta, jumladan 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 16 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola, ulardan, 4 tasi respublika va 6 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 140 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, ilmiy yangiligi, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, ishonchliligi, amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiyasi, e’lon qilingan ishlar va tadqiqot tuzilishi ko‘rsatilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Ijtimoiy-psixologik roman janri nazariyasi muammolari va Joys Kerol Outs adabiy estetikasi”** deb nomlangan bo‘lib, muammo nazariy, ijtimoiy-falsafiy darajada ko‘rib chiqilgan, konfliktning o‘ziga xos xususiyatlari, tematik soha, tadqiqot obykti ijtimoiy va ijtimoiy-psixologik romanning syujet-kompozitsion xususiyatlari muammosi aniqlangan. Bu bobda turli tarixiy davrlarda yozuvchilarning unga nisbatan munosabati ham tadqiq qilinadi va Joys Kerol Outsning g‘oyaviy pozitsiyalari o‘z davri adabiy tanqidi kontekstida ko‘rib chiqiladi.

Ijtimoiy roman - bu ma’lum bir davr odamlarining ijtimoiy tajribasini ifodalash imkonini beradigan adabiy shakl. Ijtimoiy roman asosida voqelikning keskin tanqidi, jamiyatning qanday tuzilishi va unda faoliyat ko‘rsatayotgan qonunlar yotadi. Ijtimoiy romanda ijtimoiy sharoit, hayot va jamiyatning tashkil etilishi qoidalari o‘rganish markazida bo‘lib, shaxsning jamiyatda shakllanishi va ma’qullanishi, uning shaxsga ta’siri, aksiologiyasining shakllanishi yo‘llari o‘rganiladi.

Ijtimoiy romanning ilk nazariyotchilaridan biri fransuz yozuvchisi va tanqidchisi Etyen Kon’erdir. U o‘zining “Ijtimoiy roman” (1848) asarida adabiyot ijtimoiy o‘zgarishlarda muhim rol o‘ynashi, ijtimoiy muammolarga e’tiborni

qaratishi lozimligini ta'kidlagan. U ushbu muammolarni tushunish va hal qilish uchun adabiyotdan foydalanish zarurligi g'oyasini ilgari surdi. Ijtimoiy romanlarda ko'pincha quyi tabaqalar hayoti, qashshoqlik, irqiy tengsizlik, ekspluatatsiya va boshqa ijtimoiy muammolar tasvirlangan. Ular o'quvchilarga ko'pincha jamiyat e'tiboridan chetda qoladigan yoki e'tibordan chetda qoladigan odamlar hayotining haqiqatlarini ko'rsatishga harakat qiladi.

Zamonaviy ijtimoiy roman muammolari M.Bredberi, D.Uotson, S.Konnor, A.Gaziorek, D.Teylor, A.Sinfild, F.Tyu asarlarida ham realistik an'anaga moslik va ijtimoiy o'zgarishlarning romandagi aksi va "madaniyatshunoslik" nuqtai nazaridan ko'rib chiqilgan.⁵

Adabiyotshunoslar roman tipologiyasi masalasining murakkabligini va buning natijasida janr tasniflarining ma'lum bir qator xususiyatlarga ko'ra xilma-xilligini tan olgan holda, ijtimoiy romanning psixologik va ijtimoiy-psixologik kabi tarixiy jihatdan aniqlangan turlarini ajratib ko'rsatishadi. Bu xilma-xillik yozuvchining ushbu hikoya shakliga murojaat qilgan hukmron tashqi va ichki shaxsiy muammolariga o'ziga xos qarashidan ham, inson va jamiyat bilan birga rivojlanib, o'zgarib boruvchi jonli hodisa bo'lgan janrning o'z mohiyatidan kelib chiqadi.

Ijtimoiy-psixologik roman o'ziga xos janr bo'lib, unda asosiy e'tibor inson xulq-atvori, shaxslararo munosabatlar va ijtimoiy me'yorlar murakkabligiga qaratilgan. Ushbu romanlar ko'pincha qahramonlarning psixologik va hissiy dinamikasini o'rganadi, inson tabiati va ijtimoiy kuchlarning shaxslarga ta'siri haqida chuqur tushuncha beradi. Ijtimoiy psixologik romanlarning ba'zi asosiy xususiyatlari:

1.Qahramonlarning murakkab ichki psixologiyasi: Ijtimoiy-psixologik romanlar mualliflari o'z qahramonlarining ichki dunyosini rivojlantirishga alohida e'tibor beradilar. Bu hikoya davomida qahramonlarning hissiy holatlari, ichki ziddiyatlari va psixologik rivojlanishini batafsil o'rganishni o'z ichiga oladi.

2.Ijtimoiy masalalar va muammolarni chuqur o'rganish: Bu janrdagi roman mualliflari qashshoqlik, tengsizlik, irqiy yoki sinfiy nizolar kabi keng ko'lamli ijtimoiy mavzu va muammolarni tahlil qiladilar. Bu ularga ijtimoiy hayotning chuqur qatlamlariga kirib borish imkonini beradi.

3.Ijtimoiy o'zaro ta'sirlar va munosabatlar tavsifi: Ijtimoiy-psixologik romanda jamiyat ichidagi personajlar o'rtasidagi murakkab o'zaro munosabatlar yoritilgan. Bu shaxslararo munosabatlar, oilaviy dinamika va ijtimoiy tarmoqlar tahlilini o'z ichiga olishi mumkin.

4.Ijtimoiy o'zgarishlar va ularning qahramonlar ruhiyatiga ta'siri tahlili: Ijtimoiy-psixologik romanda ijtimoiy o'zgarishlarning personajlarning emotsional-psixologik holatiga ta'siri kuzatilgan. Bunga siyosiy, iqtisodiy yoki madaniy o'zgarishlar sabab bo'lishi mumkin.

5.Milliy-madaniy xususiyatlarning asarda aks etishi: Mualliflar o'z asarlarida milliy-madaniy kontekstlarni hisobga oladilar va tasvirlaydilar, bu esa ijtimoiy-psixologik jihatlarni chuqurroq tushunishga xizmat qiladi.⁶

Rus faylasufi va adabiyot nazariyotchisi Mixail Baxtin ijtimoiy-psixologik

⁵ Bradbury. M. The modern British novel [Study of British fiction, 1876-present. – London: Seeker & Warburg, 1993. 2001: Connor S. The English Novel in History 1950-1995. – London and New York: Routledge, 1996.

⁶ Dr. Deepa N. Social Psychology. – University of Calcut, 2019. – P. 60-66.

roman nazariyasini rivojlantirishga o'z hissasini qo'shdi. Mixail Baxtin "Dostoyevskiy ijodi muammolari" asarida ijtimoiy muammolarni ko'rib chiqishni o'rganadi; bu ijtimoiy-psixologik romanning o'ziga xos xususiyatlaridan biridir; adabiyotning boshqa shakllariga nisbatan insoniy holatni yanada murakkab va nozik o'rganish uchun ijtimoiy muammolarni tahlil qilish ushbu romanda noyob san'at turi bo'lib hisoblanadi. Shuningdek, u Fyodor Dostoevskiy asaridagi polifoniya yoki "polifoniya" g'oyasini tahlil qiladi. Mixail Baxtin Dostoevskiyning romanlariga murakkab adabiy matnlar sifatida qaraydi, unda turli xil ovozlari va dialoglar muhim ma'noni anglatadi. Bu har bir qahramonning o'z nuqtai nazariga ega bo'lishi va o'ziga xos psixologiyasini ifodalash imkonini beradi va shu orqali ko'p qirrali va boy adabiy dunyo yaratadi. Mixail Baxtin tilning xilma-xilligi kontsepsiyasiga alohida e'tibor beradi, bu yerda turli xil ijtimoiy, madaniy va psixologik pozitsiyalar til va belgilar nutqining xilma-xilligida namoyon bo'ladi. U Dostoyevskiy romanlarida bu xilma-xil ovozlari muallif fikriga bo'ysunmay, butunlay mustaqil qoldirilganligini, bu esa "polifoniya" effektini yuzaga keltirishini, murakkab psixologik-ijtimoiy jihatlarni ifodalashga imkon berishini ta'kidlaydi.⁷

Shuningdek, J.K. Oates ham nutqning polifanik xususiyatidan o'z romanlarida foydalangan. Masalan, uning "Kecha. Tush. O'lim va yulduzlar" romanida J.K. Oates boshqa matnlardan iqtibos keltirishda, jumladan, Volt Uitmaning "Clear Midnight" she'ridan iqtibos keltirar ekan, asar tilida nutq shakllaridan birini ishlatadi, bu esa quyida ta'kidlangan she'rimizning oxirgi satri ishning ma'lum hissiy yoki madaniy jihatlarni yaxshilash uchun xizmat qiladi. Natijada uning "Kecha. Tush. O'lim va yulduzlar" romanining nomiga aylandi. Masalan,

*"This is thy hour, O Soul, thy free flight into the wordless, Away from books, away from art, the day erased, the lesson done, Thee fully forth emerging, silent, gazing, pondering the themes thou lovest best. Night, sleep, death and the stars"*⁸.

Nutqning polifanik xususiyatidan yana bir shakli-bu belgilarning xususiyatlarini yetkazish uchun dialektlardan foydalanishdir. Bunda, yozuvchining "Qurbonlik" romanida J.K. Oates faqat qora tanli amerikaliklar foydalanadigan turli xil lahjalardan foydalandi.

"Your stepdaddy he love you, girl. He try to love you. He help support you, like you his own daughter". Ushbu misolda afro-amerikalik madaniyatiga xos bo'lgan afro-amerikalik jarangli dialekt ishlatilgan. Buni ma'lum bir madaniyatda so'zlashuv nutqi va muloqotga xos bo'lishi mumkin bo'lgan *"He help support you, like you his own daughter"* kabi aniq iboralarda ko'rish mumkin.

Erich Fromm o'zining "Ozodlikdan qochish" kitobida ijtimoiy-psixologik romanni zamonaviy inson boshdan kechirayotgan erkinlik inqirozining aksi deb hisoblaydi. Uning ta'kidlashicha, an'anaviy ijtimoiy aloqalardan ozod bo'lish natijasida inson ko'pincha o'zi ko'tara olmaydigan ulkan tanlov va mas'uliyatlarga duch keladi. Natijada, u avtoritarizm, buzg'unchilik yoki konformizmning turli shakllariga murojaat qilib, erkinlikdan qochish yo'llarini qidiradi.

E. Fromm o'z asarida ijtimoiy-psixologik romanning quyidagi xarakterli xususiyatlarini belgilaydi:

⁷ Бахтин М.М. "Проблемы творчества Достоевского". – "Алконост". 1994. – С. 6-7.

⁸ Oates J.C. "The Sacrifice" Harper Collins Publishers Inc. – New York. 2015. – P. 263.

1. Murakkab odamlarning tasviri: Bu romanlar, Frommga ko'ra, odamlarni oddiygina oqilona yoki avtonom mavjudotlar sifatida tasvirlashdan qochadi. Aksincha, ular erkinlikka intilish va xavfsizlik istagi o'rtasida ajralgan qarama-qarshiliklarga to'la personajlarni namoyish etadilar. Ular inson tajribasining o'ziga xos murakkabligini ko'rsatib, olijanob va salbiy tomonlarini namoyish etadi.

2. Ichki ruhiy kechinma: E. Fromm janrning turli badiiy uslublar orqali odamlarning psixologik kechinmalariga kirib borish qobiliyatini yuqori baholagan. Qahramonlarning xarakteristikasi, hikoya qilish uslubi va ichki dialog - bularning barchasi motivatsiyalar, qo'rquvlar va ichki ziddiyatlarni o'rganishda yordam beradi, shuningdek, inson xatti-harakatining nozik tushunchasini yaratadi.⁹

2000-yillardan keyin yozgan romanlarida J.K. Oates ham ijtimoiy-psixologik romanning ana shu xususiyatlaridan foydalanib, odamlarni tub ma'noli, oqilona mavjudotlar sifatida emas, balki bir vaqtning o'zida erkinlik va xavfsizlikka intiladigan, olijanoblik va buzuqlikni uyg'unlashtirgan murakkab va qarama-qarshi shaxslar sifatida ko'rsatadi; inson tabiatining murakkabligi, odamlar qarama-qarshi istaklar va his-tuyg'ular bilan qanday kurashishini ham o'z ichiga oladi. Uning romanlari, shuningdek, personajlarning motivlari, qo'rquvlari va ichki ziddiyatlarini o'rganib, inson xatti-harakati to'g'risidagi nozik tushunchani yaratib, xarakterlash, hikoya qilish uslubi va ichki dialoglar kabi turli badiiy uslublarni qo'llagan holda, odamlarning psixologik teranligiga kirib boradi. Bo'limda ijtimoiy-psixologik romanning rivojlanishi va faoliyati muammolari bo'yicha M. M. Baxtin, V. G. Belinskiy, T. N. Denisova, I. G. Dobritskaya, N. Yu. I. Timofeyeva, E. Popova kabi ham mahalliy, ham xorijiy olimlar tomonidan bajarilgan ishlarning tahliliy sharhi keltirilgan. Joys Kerol Oatesning ishi turli nuqtai nazardan muhokama qilingan. Gari Frederik Uollerning ta'kidlashicha¹⁰, Joys Kerol Oates transsendensiya imkoniyatlari haqida yozadi, Ellen Fridman esa Joys Kerol Oates¹¹ haqida o'z romanlarida amalga oshmagan ambitsiyalarni cheklashga chaqiradi. Meri Ketrin Grantning xulosasiga ko'ra¹², Oatesning fojiali qarashlari ijtimoiy munosabatlar taqchilligi va jamiyatdan ajralib qolishi tufayli yuzaga keladi, buning oqibatida esa katarsis (azoblanish va achinish) siz fojia va personajlarning harakati ko'pincha yuzaki bo'ladi Biz Meri Ketrin Grantning bu daliliga qo'shilmiz, chunki "Qurbonlik" asarini tahlil qilib, biz bosh qahramon Sibil Fray ijtimoiy-psixologik roman janridagi kitob qahramoni sifatida to'liq shakllanmagan, degan xulosaga keldik. M.K. Grant shuningdek, J.K. Oatesning yozuvchi sifatidagi kuchi, birinchi navbatda, XIX asrning realistik uslublaridan tez-tez foydalanishi emas, balki shaxsiy va ko'proq eksperimental yozish usullarini o'rganishida ekanligini tasavvur qiladi. Gavin Kologne-Bruks uchun esa¹³, J.K. Oatesning ahamiyati muallifning san'atga amaliy yondashishida bo'lib, u ijtimoiy muammolar va imkoniyatlarni yaxshiroq tushunish uchun vosita bo'lib

⁹ Фет А.И. Собрание переводов. Эрих Фромм. Бегство от свободы. Philosophical Arkiv. – Sweden. 2016.– С.201.

¹⁰ Gary F. Waller, *Dreaming America: Obsession and Transcendence in the Fiction of Joyce Carol Oates*. – Baton Rouge: Louisiana State U. Press, 1979.

¹¹ Ellen G. Friedman, *Joyce Carol Oates*. – New York. Ungar, 1980.

¹² Mary Kathryn Grant, *The Tragic Vision of Joyce Carol Oates*. Durham. – Duke U. Press, 1978.

¹³ Gavin Cologne-Brookes, *Dark Eyes on America: The Novels of Joyce Carol Oates*. Baton Rouge: – Louisiana State U. Press. 2005.

xizmat qiladi. U J.K.Outsning pragmatik yozuvchi ekanligini ta'kidlaydi. Malkolm Bredberi uchun J.K.Outs ijtimoiy-psixologik romanlar va hikoyalar yozuvchisi sifatida ayniqsa muhimdir¹⁴; Garold Blunning ta'kidlashicha¹⁵, faqat bitta roman ijtimoiy masalalarni muhokama qiladi va ba'zi eksperimental xususiyatlar bilan naturalistik rejimda yozilgan.

Mashhur rus amerikanist-adabiyotshunosi Aleksandr Mulyarchik J.K.Outs haqida shunday yozadi: "Hozirda bundan 10-15 yil avval yetakchi ijtimoiy tanqidchi, realistik yo'nalishdagi nasr yozuvchilardan biri bo'lishga da'vo qilgan iste'dodli adib Joys Kerol Outsning ijodiy taqdiri ham kam tashvishlantirmaydi".¹⁶ U yozuvchining dastlabki ijodini shunday tasvirlaydi: "60-yillarning yana bir yorqin kashfiyoti bo'lgan J.K.Outsning dastlabki ishi ham real dunyoga va unda yashovchi tirik odamlarga chinakam qiziqish bilan ajralib turardi. Murakkab psixologning iqtidori, garchi birinchi navbatda, yozuvchining ijodiy qiyofasining ko'zga tashlanadigan jihati bo'lsa-da, uning asosiy xususiyati emas. U o'zining eng yaxshi asarlarida psixologik teranlik o'rganishni ijtimoiy tahlil vazifalariga, shaxs va uning muhiti o'rtasidagi aloqalarni aniqlashtirishga bo'ysundirishga muvaffaq bo'ldi".¹⁷ Ushbu iqtibos yozuvchi J.K.Outsni haqiqiy dunyoga va tirik odamlarga haqiqiy qiziqish uyg'otadigan muallif sifatida tasvirlaydi. U nafaqat atrof-muhitni o'rganadi, balki inson psixologiyasining chuqurligini ham tahlil qiladi. Darhaqiqat, uning "Sharsharalar" va "Biz Mulveneylar edik" dastlabki asarlari inson va uning atrof-muhit o'rtasidagi munosabatlarni o'rganishga imkon beradigan murakkab psixologik tahlil bilan ajralib turadi. Asarlar muallifga inson va uning muhiti o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish imkonini beradigan murakkab psixologik tahlil bilan ajralib turadi.

U o'z asarlarida yozuvchining tabiatni erkaklar hukmron bo'lgan adabiy an'ana me'yorlari bilan baholamasdan, o'zi bilgandek tasvirlash huquqini himoya qilgan. Misol uchun, Joys Kerol Outs o'zining "La'natlanganlar" (2013) romanida yozuvchini muallif uslubi uchun tanqid qilingan va muvaffaqiyatga erishish uchun u erkaklar hukmronlik qiladigan adabiy muassasa standartlariga mos kelishi kerakligini aytadigan sahnani tasvirlagan. Joys Kerol Outs, shuningdek, adabiy tanqidning ayol mualliflarni qoralash uchun ishlatilishini tanqid qiladi va bunday tanqidni ochiqdan-ochiq jinsiy yondashuv deb ataydi. Bundan tashqari, Joys Kerol Outsning ta'kidlashicha, "ayol mualliflarga erkaklar hukmronlik qiladigan adabiy konvensiya standartlari bo'yicha hukm qilinmasdan, o'z asarlarida zo'ravonlik va yovuzlik mavzularini o'rganishga ruxsat berish kerak".¹⁸

Tadqiqotning "**Joys Kerol Outs romanlaridagi ijtimoiy muammolar va personajlar psixologiyasi**" nomli ikkinchi bobidan ijtimoiy-psixologik roman poetikasi tahlili o'rin olgan bo'lib, unda muallif 2000-yillardan keyin Joys Kerol Outs tomonidan yozilgan romanlardagi metaforik tasvirlar, ijtimoiy va oilaviy muammolarni ramzlar, tashbehlar va iboralar orqali tasvirlaydi.

Bobning 2.1. -fasli "Bedarak yo'qolgan ona" romanida ona obrazi

¹⁴ Malcolm Bradbury, *The Modern American Novel*, Second Ed. – Oxford U. Press, 1992.

¹⁵ Harold Bloom, ed., *Modern Critical Views: Joyce Carol Oates*. – New York. Chelsea House, 1987.

¹⁶ Мулярчик А.С., «В пограничной зоне», <https://pub.wikireading.ru/ahHaUfP45T>

¹⁷ Мулярчик А.С., *Современный реалистический роман США 1945-1980*, – Москва, Высшая школа, 1988.

¹⁸ Published in the print edition of the July 6 & 13, 2020, issue, with the headline "The Art of the Unruly." – *The New Yorker*.

simvolikasi” deb nomlangan bo‘lib, unda J.K.Outs begonalashish va shaxsiyatni qidirish mavzularini ishlab chiqish uchun bir qator she'riy vositalardan, jumladan, ramziylik va tasvirlardan foydalanadi.

O‘lim motivi roman davomida takrorlanib, Nikki his qilayotgan yo‘qotish va umidsizlikning ramzi bo‘lib xizmat qiladi. Yo‘qolgan onaning ramziyligi begonalashish mavzusini yanada ta’kidlaydi. Ona figurasining yo‘qligi buzilgan oilaviy munosabatlar uchun metafora bo‘lib xizmat qiladi va Nikkining amalga oshmagan sog‘inch tuyg‘usiga asoslanadi:

“Suddenly, I wanted to be with Mom. I wanted to run away from everyone, to be with Mom. We staggered out of the Chautauqua County Courthouse and into the startling sunshine of a day in early summer”.... “Mom? Mom?” I seemed to know Mom is gone, this is my fault for leaving her even as I knew it could not be so, my mother would never leave us, of course Mom would never leave us because she loved us, because she was Mom;”.

“Bedarak yo‘qolgan ona” romanida Joys Kerol Outs ma’noni yetkazish va his-tuyg‘ularni uyg‘otish uchun simvolizmdan foydalanadi. Romanning qahramoni jismoniy yo‘qligidan ko‘ra ko‘proq narsani ifodalaydi; u Nikki hayotida qolgan hissiy bo‘shliqni ham aks ettiradi. Bundan tashqari, Nikki xotiralarida muhim o‘rin egallagan onasi qo‘llarining takrorlanadigan tasviri yupanch bilan bir qatorda yo‘qotish ma’nosini ham anglatadi.

*“I’d taken Mom’s hand, which was small-boned, and surprisingly cool. The more I thought about taking Mom on a trip, the more excited I became”.*¹⁹

Joys Kerol Outsning “Bedarak yo‘qolgan ona” romanida metafora yaratishi romanga poetik rezonans beradi. Misol uchun, Nikkini onasi bilan bog‘laydigan takrorlanadigan suv motivi his-tuyg‘ularning quyilishi va oqimi pasayishini hamda vaqt o‘tishini anglatadi. Romanning metaforik tasvirlari qahramonlarning hissiy sarguzashtlarini ta’kidlab, o‘rganilayotgan mavzularga chuqurlik va qarama-qarshiliklarni qo‘shadi:

*“After your father passed away, you know, Gwen was at the pool every morning. She told me, ‘In the water you feel so free’”.*²⁰

*“...It was tempting to hide underwater in the pool. Sinking slowly to the concrete floor that felt smooth against the soles of my bare feet. Beside me, near enough to touch, was a wavy tiled wall. The water glimmered aqua and was sinuous, caressing. At a short distance were the pudgy bodies, slow-paddling legs of sister swimmers. Like Feather, wishing to be blown by the wind, where others can’t follow. I surfaced, gasping for air. My heart was pounding. An animal exuberance came over me: a greedy delight in filling my lungs with air”.*²¹

Allyuziyalarni o‘rganish adabiy yoki lingvistik jihatlariga, shuningdek, kognitiv jarayonlarga, madaniyatlararo munosabatlarga yoki intertekstuallik muammosiga aloqador. Allyuziyani o‘rganish sohasi juda keng, shuning uchun muayyan mavzuni tanlash belgilangan maqsadlarga bog‘liq.

“The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms” lug‘ati ta’rifiga ko‘ra, allyuziya (lotincha allusion — ishora, zukko) o‘xshash tovushli so‘z yoki taniqli

¹⁹ Oates J.C. “Missing Mom”, Harper-collins, 2005, USA. – P. 106.

²⁰ Oates J.C. “Missing Mom”, Harper-collins, 2005, USA. – P. 131.

²¹ Oates J.C. “Missing Mom”, Harper-collins, 2005, USA. – P. 239.

real fakt, tarixiy voqea, adabiy asarni eslatib o'tish orqali aytiladigan uslubiy shakl, ishoradir. U badiiy, notiqlik, ilmiy va maishiy tilda ma'lum bir voqelikni tarixiy voqealar rivojidan, buyuk odamlarning hayotidan, xalq og'zaki ijodidan ma'lum bo'lgan o'xshashlik bilan aloqasi orqali yanada yengilroq, hajmliroq tasvirlash uchun ishlatiladi.²²

Alluziyalarni faol o'rganish 20-asrda boshlangan, u har qanday aniq, to'g'ridan-to'g'ri murojaat bilan aniqlangan va u turli xil mulohazalar va ko'plab tadqiqotchilarning eng katta munozaralariga sabab bo'lgan. Jumladan, E.Yu. Abramova, O.S. Axmanova, I.V. Gubbenet, E.M. Dronova, A.S. Evseeva, M.I. Kiose, A.G. Mamaeva, L.A. Mashkova, I.G. Potylitsyna, E.V. Rosen, I.N. Sofronova, Z.Porat va boshqa tilshunos olimlar asarlari allyuziyalarni o'rganish muammolariga bag'ishlangan.

Chunonchi, O.E.Naumova, dastavval pretsedent matnlarning kognitiv, pragmatik, lingvomadaniy jihatlariga e'tibor qaratadi.²³ E.M.Dronovaning so'zlariga ko'ra, ishorani o'rganish madaniyatlararo munosabatlarni, intertekstuallik muammolarini, stilistika, frazeologiya, tarjimashunoslik sohalarini o'rganish doirasida amalga oshirilishi mumkin.²⁴ A.S.Evseev ushbu masalani rivojlantirish bilan bog'liq muammolarni murojaat nazariyasi, o'ziga xos ismlar nazariyasi, stilistika, poetika, ritorika, tilshunoslik va mintaqashunoslik, adabiyotshunoslik kabi tilshunoslik fanlarida markaziy o'rinlardan biriga qo'yadi.²⁵

“Kecha. Tush. O'lim va yulduzlar” romanida insoniy munosabatlarni ifodalashning ishorali usuli” J.K.Outs tarixiy voqealarga, mifologiyaga ishoralardan foydalanib, matnni turli ma'nolar bilan boyitadi, chuqurroq ma'no yaratadi, shuningdek, asar va tashqi dunyo o'rtasida aloqa o'rnatadi. O'tmishga ishoralar orqali murojaat qilish madaniy meros boyligi bilan muloqot qilish, uning ma'no va qadriyatlarini zamonaviy adabiyot kontekstida yetkazish imkonini beradi. Masalan, u qadimgi yunon faylasufi Diogen va Arximedga ishoralardan foydalanib, antik davr muhitini uyg'otadi va antik davrga xos falsafiy g'oyalar va romanga kiritilgan zamonaviy mavzular o'rtasidagi o'xshashliklarni izlaydi.

“Was, then. Who Diogenes was”. “Some old, ancient Greek philosopher who's been dead a thousand years”.²⁶ “Or no, that was the ‘Eureka!’ man, in the bathtub, what's-his-name...” “Archimedes.” “What?” “Who? ‘Archimedes’—the one in the bathtub, who discovered the law of gravity”.²⁷

Arximedga ishora, shuningdek, qadimgi falsafiy va matematik an'analar bilan aloqa o'rnatishga, intellektual tarixning boyligini ta'kidlashga xizmat qilishi

²² Baldick C. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. – New-York. Oxford University Press, 2008, – P. 142.

²³ Наумова Е.О. Прецедентные тексты в публицистическом дискурсе [Precedent texts in journalistic discourse] // Вестник РУДН. Серия «Русский язык нефилологам. Теория и практика». № 3. М.: Изд-во РУДН.2002, – С. 80.

²⁴ Дронова Е.М. Проблемы перевода стилистического приема аллюзии в англо- ирландской литературе первой половины XX века [Problems of translation of the stylistic device of allusion in Anglo-Irish literature of the first half of the twentieth century] – Вестник ВГУ. № 1.2004, – С. 83-86.

²⁵ Евсеев А.С. Основы теории аллюзии (на материале русского языка) [The Basics of the theory of allusion]: автореф. дис. на соискание ученой степени канд. филол. наук: спец. 10.02.04 «Русский язык». – Москва.1990

²⁶ Oates J.C. “Night. Sleep. Death. The stars.” Harper Collins Publishers Inc. 195 Broadway, – New York, USA. 2019, – P.155.

²⁷ Oates J.C. “Night. Sleep. Death. The stars.” HarperCollins Publishers Inc. 195 Broadway, – New York, USA. 2019, –P.266.

mumkin, bu esa romandagi kontekst va assotsiatsiyalarni boyitishga yordam beradi. Bu hikoyani kengroq tarixiy va madaniy kontekstda asoslashga yordam beradi, o'tmishning doimiy ahamiyatiga va uning bugungi kunga ta'siriga e'tiborni qaratadi.

U qayg'u va yo'qotish g'oyasini o'rganish uchun Shekspirning Gamletiga ham murojaat qiladi:

*“Did you see him tonight? Acting like Hamlet’s ghost”. “You said that before—but did Hamlet have a ghost? I think the ghost was supposed to be Hamlet’s father...”*²⁸

Nima uchun J.K.Outs Shekspir motivlariga murojaat qiladi, uni shaxsiyatni o'rnatish muammosi, dunyo yovuzligi muammosi, dunyoda yovuzlik qayerdan paydo bo'lishi va nima uchun inson bu dunyoda baxtli bo'la olmasligi bilan izohlanadi. Shekspir birinchi bo'lib bunday muammoni keng kontekstda bergan. Gamlet tragediyasida Gamlet aynan shunday qiladi: u dunyoning yovuzligi bilan kurashadi va bu kurashda g'alaba qozona olmasligini tushunadi. Yovuzlikni yo'q qilib bo'lmaydi; bu Shekspir motivi J.K.Outsni o'ziga tortadi, u ijtimoiy yovuzlikka qarshi kurash kontekstini ko'rib chiqadi. Buni ular uchun yo'q qilib bo'lmaydi.

Qadimgi Misr fir'avni haqidagi quyidagi havola madaniy rezonans qatlamini qo'shib, tarixiy va ramziy assotsiatsiyalarga asoslanib, hikoyani boyitadi va hashamat va o'zini o'zi yoqtirishga qadimiy va zamonaviy munosabatlarning kesishishi haqida fikr yuritadi.

Once joking if he'd been an ancient Egyptian pharaoh, he'd have insisted on a supply of oysters Rockefeller in his “pyramid.”

Qadimgi Misr fir'avnining Rokfeller ustritsalari kabi hashamatli oziq-ovqat mahsulotiga ega bo'lish istagi haqida eslatish isrofgarchilik ramzi bo'lib xizmat qiladi. Bu xarakter yoki muhitning haddan tashqari, hashamatga moyilligini yoki cheklovlar yoki amaliylikka e'tibor bermaslikni, hashamat va ulug'vorlik elementlarini aks ettirishi mumkin.

2.3. - fasl “Qabr qazuvchining qizi” romanidagi zo'ravonlikning shaxs psixologiyasining shakllanishiga ta'siri muammosi” deb nomlanib, unda yanada yorqinroq va esda qolarli obraz yaratish uchun o'ziga xos metaforik obrazlar berilgan.

Roman ayni paytda lirik va tanqidiydir J.K.Outsning badiiy uslubi, ayniqsa, atrof-muhit va personajlar hissiyotlarining yorqin tasvirini yaratishda tafsilotlarga boy. Hikoya cho'zilgan, lekin o'quvchini syujetga chuqur singdiradi. Ushbu romanni jarohat va chidamlilikni o'rgatishi ajratib turadigan. Rebekka hayoti davomida ko'plab, jumladan, oilaviy zo'ravonlik va shaxsiy fojia qiyinchiliklariga duch keladi. Biroq, u bu to'siqlarni yengib o'tish uchun o'zida kuch topib, chidamli bo'lib qoladi. Outs bu qiyin mavzularga sezgirlik va rahm-shafqat bilan murojaat qilib, umid va qat'iyat kuchini ta'kidlaydi. O'limning fojiali mohiyatini va uning yaqinlari va aziz narsalarni mahrum qilish qobiliyatini ko'rsatadigan iboralarni keng qo'llaydi. Qahramon duch keladigan yo'qotish va qayg'u mavzusini aks ettiradi. U Rebekkaning hayoti uchun jiddiy oqibatlariga olib

²⁸ Oates J.C. “Night. Sleep. Death. The stars.” – HarperCollins Publishers Inc. 195 Broadway, – New York, USA. 2019. – P.158-160.

keladigan va uning hissiy holatiga ta'sir qiladigan kutilmagan o'lim yoki yo'qotishlarga duch kelishi mumkin: *"Death leaks downward"*.²⁹

